



UDK:633.88

**GAZAK O‘T – (GENTIANA OLIVERI GRISEB.) NI BIOLOGIYASI  
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

**BEGMATOVA M.X.**  
**SUNNATOVA O.Sh.**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 77 uy*

**Annotatsiya.** O‘zbekistonning tabiiy iqlim va tuproq sharoitlari mazkur noyob giyohlar o‘shishi uchun har jihatdan qulay. Noyob dorivor o‘simliklarni bioekologik xususiyatlarini o‘rganish va asrab qolish bugungi kun talabidir.

Shunday ekan, dorivor o‘simliklardan to‘g‘ri va samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish, ular o‘sadigan muxitlarni muhofaza qilish, ularni tabiiy ko‘payishi uchun insonlar tomonidan salbiy ta‘sirni kamaytirish orqali ularni saqlab qolish va insonlar va hayvonlarni davolash uchun keng foydalanish imkoniyatini yaratish mumkin.

**Аннотация.** Природный климат и почвенные условия Узбекистана во всех отношениях благоприятны для произрастания этих уникальных трав. Изучение и сохранение биоэкологических свойств уникальных лекарственных растений – требование сегодняшнего дня.

Поэтому важно разработать способы правильного и эффективного использования лекарственных растений, защитить среду, в которой они растут, сохранить их за счет снижения негативного воздействия человека на их естественное размножение, а также спасти людей и животных. широко доступны для лечения.

**Abstract.** The natural climate and soil conditions of Uzbekistan are favorable in all respects for the growth of these unique herbs. The study and preservation of the bioecological properties of unique medicinal plants is a requirement of today. Therefore, it is important to develop methods for the correct and effective use of medicinal plants, to protect the environment in which they



grow, to preserve them by reducing the negative impact of humans on their natural reproduction, and to save people and animals. widely available for treatment.

**Kalit soʻzlar.** Oʻsimlik, shifobaxsh, barglari mayda, choʻzinchoq shaklda, silliq yoki ozgina tukli, gullari och binafsha, pushti yoki oq rangda, efir moylari, flavonoidlar, taninlar, organik kislotalar.

**Ключевые слова.** Растение лекарственное, листья мелкие, продолговатые, гладкие или слегка опушенные, цветки светло-фиолетовые, розовые или белые, эфирные масла, флавоноиды, дубильные вещества, органические кислоты.

**Keywords.** Medicinal plant, leaves are small, oblong, smooth or slightly pubescent, flowers are light purple, pink or white, essential oils, flavonoids, tannins, organic acids.

## KIRISH

Taʼkidlash lozimki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda farmatsevtika sanoati va dorixonalarni oʻsimliklar xomashyosi bilan taʼminlash maqsadida ixtisoslashgan, fermer, oʻrmon va boshqa mulkchilik shaklidagi xoʻjaliklarida eng koʻpi bilan 42 tagacha dorivor oʻsimliklar turlari oʻstiriladi.

Shu sababli ham, ushbu sanoatni dorivor oʻsimliklar xomashyosi bilan yetarli darajada taʼminlash talab etiladi.

Keyingi vaqtda farmatsevtika sanoati korxonalari dori vositalarining taxminan 50% dorivor oʻsimliklar xomashyosidan tayyorlanayotganligini eʼtiborga olsak, dorivor oʻsimliklar oʻstirish texnologiyasi fani naqadar katta ahamiyat kasb eta boshlaganini tasavvur qilish qiyin. Shu sababli ham, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan hozirgi vaqtda mamlakatimizda dorivor oʻsimliklar oʻstirish bilan shugʻullanuvchi 8 ta ixtisoslashgan xoʻjaliklar tashkil qilingan. Bundan tashqari koʻplab ormon, fermer va boshqa mulkchilik shaklidagi xoʻjaliklarda ham oʻstirilmoqda. Biroq mamlakatimizda dorivor oʻsimliklar xomashyosiga boʻlgan talabning keskin ortib borishiga qaramasdan ularni oʻstirish texnologiyalari shu vaqtgacha mukammal ishlab chiqilgan emas.

Hozirgi kunda tabiiy holda oʻsayotgan dorivor oʻsimliklarni zaxiralari insonlar taʼsirida kamayib bormoqda. Buning oʻrnini toʻldirish va xalqimiz ehtiyojini qondirish maqsadida dorivor oʻsimliklar turlarini koʻpaytirish va ularni Oʻzbekistonning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sugʻoriladigan



mintaqalarda ekib o‘stirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekistonda farmatsevtika sanoatini dorivor o‘simliklar xomashyosi bilan ta‘minlash maqsadida yaqin yillar ichida dorivor o‘simliklarni ekib o‘stiradigan fermer va ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil qilish va ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Material va metodlar.** Maqolada morfologik, fenologik, fitokimyoviy va statistik usullardan foydalanilgan.

Natijalar va ularning tahlili Gazak o‘t – dorivor o‘simliklar qatoriga kiruvchi, ko‘p yillik o‘tlardan biri. Gazak o‘t asosan subtropik va mo‘tadil iqlim sharoitida o‘sadi. U xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinayotgan foydali o‘simliklardan biridir. Gazak o‘t – past bo‘yli, tarvaqaylab o‘sovchi ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, 10–40 sm balandlikka ega. Barglari mayda, cho‘zinchoq shaklda, yuzasi silliq yoki ozgina tukli bo‘lishi mumkin. O‘simlikning gullari och binafsha, pushti yoki oq rangda bo‘lib, asalari va boshqa changlatuvchilarni jalb qiladi. Gazak o‘tning yoqimli xushbo‘y hidga ega bo‘lishi uning tarkibidagi efir moylariga bog‘liq.

*Tarqalishi* Gazak o‘t asosan O‘rta Yer dengizi mintaqasida, Kavkaz, O‘zbekistonning tog‘li va tog‘ oldi hududlarida uchraydi. U toshloq joylar, quruq yaylovlar va ochiq tog‘ yonbag‘irlarida yaxshi o‘sadi. Yovvoyi holda o‘sovchi gazak o‘t quruq iqlimga chidamli bo‘lib, kam suv talab qiladi.

*Kimyoviy tarkibi.* Gazak o‘t tarkibida efir moylari, flavonoidlar, taninlar, organik kislotalar, C vitamini va boshqa foydali moddalar mavjud. Efir moyining asosiy komponentlari – timol va karvakrol bo‘lib, ular antiseptik va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega.

Gazak o‘t xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. U quyidagi kasalliklarda foydali:

Yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida – tomoq og‘rig‘i, angina va bronxit kabi nafas yo‘llari kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Ovqat hazmini yaxshilash – gazak o‘t oshqozon-ichak faoliyatini rag‘batlantiradi, hazm qilishni osonlashtiradi va meteorizmni kamaytiradi. Antiseptik ta‘sir – teri kasalliklarida va yara hamda kesiklarni dezinfeksiya qilishda ishlatiladi. Tinchtiruvchi vosita – asabiylik va uyqusizlikka qarshi qo‘llaniladi.

*Qo‘llanilishi.* Choy shaklida: Quruq barglari va gullaridan tayyorlangan damlama choy sifatida ichiladi.



Dorivor vosita sifatida: Gazak o't yog'i yoki efir moyi ko'rinishida ishlatiladi.

Ovqatlarda: Ziravor sifatida taomlarga xushbo'ylik berish uchun qo'llaniladi.



1-rasm.

### **Xulosa**

Gazak o't nafaqat dorivor, balki xushbo'y ziravor sifatida ham keng qo'llaniladi. Uning sog'liq uchun foydasi ko'p bo'lib, tabiiy davolash vositasi sifatida qadrlanadi. Shu sababli, bu o'simlikni o'stirish va undan foydalanish foydali hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1 . Begmatova M.X., Elmurodov, A.A. Shernazarov Sh.Sh. Nurniyozov A.A., // Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2023. "Fan ziyosi"
2. Нурматов Ш, Мирзажонов Қ, Авлиёкулов А, Безбородов, Ахмедов Ж, Тешаев Ш, Ниёзалиев Б, Холиқов Б, Хасанов Ф, Маллабоев Н, Тиллабеков Б, Ибрагимов Н, Абдуллаев Ш, Шамсиев А, "Дала



тажрибаларини ўтказиш услублари” услубий қўлланма. ЎзПТИ.- Тошкент, 2007.-146 б.

3. Ikramov M.I., Normurodov N. Yuldashev A.S. Lekarstvennyye rasteniya basseyna reki Zeravshan nujdayusya v ohrane // Geograficheskiye probl. Razvitiya zapovednogo dela. Tezisy dokl. Vsesoyuz nauchnoy konferensii. Samarkand.1986.S.78

4. Н.Х.Холматов,З.Н.Набибов,Н.З.Олимхо‘jayevaО‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari.Toshkent. 1991b.28.

5.Қ.Н.Ножиматов,К.Ҳ. Yo‘ldoshev, U.Sh.Shog‘ulomov, О.Қ. Ножиматов. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham.Toshkent 1995.b 24.

6.Khamrayeva M., Begmatova M. Healing properties and biometrical indicators of chelidonium majus l., introduced in uzbekistan //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – S. 495-498.

7. Бегматова М. Х. Тешик баргли далачой (биологик хусусиятлари, кимёвий таркиби, етиштириш технологияси) //Монография. СамДЧТИ. Самарқанд-2022.

8. Бегматова М. Х., Джумаева М., Хасанова Г. Биология и лекарственные свойства перспективных лекарственных растений //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – т. 16. – №. 5. – с. 53-57.

9. Hamdamov, I., Hamdamova, E. I., Suvonova, G. A., & Begmatova, M. Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi. Botanika qismi) Toshkent-2017 y, 245-247.

10. Begmatova M. et al. Technology of Cultivation of Medicinal Preparation “Hypericum Perforatum I” //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01020.

11. Бегматова М. Х., Махмадиярова Ю. Н., Джумаева М. TESHIKBARG Dalachoy (hypericum perforatum) ning xom-ashyo fitomassasi //журнал биологии и экологии. – 2023. – Т. 5. – №. 1.

12. Xolmatov X. X., Axmedov U. A. „Farmakognoziya“, 1-2 qism, T., “Fan” nashriyoti, 2007.